

# **“OMMAVIY MADANIYAT”NING SALBIY TA’SIRI VA UNING OLDINI OLISH YO’LLARI**

**Bozorova Gulchehra**

NDKI akademik litseyi o`qituvchisi

**Ulug’berdiyeva Gulchehra**

NDKI akademik litseyi o`qituvchisi

**Artiqova Adolat**

NDKI akademik litseyi o`qituvchisi

**Annotatsiya.** Kelajagimiz buniyodkorlari bo`lmish yoshlarimizning ta’lim va tarbiyasiga salbiy ta’sir ko`rsatayotgan “ommaviy madaniyat” bugun barchamizni hushyorlikka chaqirmaoqda. Zero, globallashuv tomon intilayotgan yoshlarimiz har qanday “yangilik” ham yaxshilik keltirmasligi xususida o`ylab ko`rishlari darkor. Binobarin, ushbu maqolada “ommaviy madaniyat”ning millat kelajagiga ta’siri, unga qarshi mafkuraviy immunitet yaratish yo’llari, shuningdek, mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan ma’naviy-targ`ibot ishlari xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** “ommaviy madaniyat”, ta’lim, ma’rifat, yuksak ma’naviyat, internet, ijtimoiy tarmoqlar, globallashuv, milliy qadriyatlar, mafkuraviy immunitet.

**Annotation.** The "mass culture" that negatively affects the education and upbringing of our young people, the builders of our future, today calls us all to vigilance. After all, our young people, who are moving towards globalization, need to think that any "innovation" will not bring good. Therefore, this article discusses the impact of "popular culture" on the future of the nation, ways to create ideological immunity against it, as well as the spiritual and propaganda work carried out in our country in this regard.

**Keywords:** “mass culture”, education, enlightenment, high spirituality, internet, social networks, globalization, national values, moral immunity.

“Ommaviy madaniyat”ning kuchi bugungi kunda ochiq-oydin ba’zi holda yashirincha tarzda targ’ib qilinayotgani, achinarlisi uning ta’siriga tobora berilayotganimizdir. Ayniqsa, yoshlar madaniyatining yo’qolib borayotgani, milliy qadriyat, urf-odatlarimiz, an’analaramizning oyoqosti qilinishi va bu holatga

shunchaki “zamonaviylik” deya qarayotganimiz sababchi bo’lmoqda. Qalbga nish sanchib turadigan tomoni shundaki, hali murg’ak ongida yaxshi-yomon, oq-qorani ajratolmaydigan bolalarimizning unga ko’r-ko’rona ergashishi, shu bilan birga kattalarimizning beparvo, e’tiborsizligi eng og’riqli nuqtaga aylanib boryapti. Farzand tarbiyasi nihoyatda mas’uliyatli va dolzarb masalalardan biri. Tarbiya bolaga “Ona qornidaligidan beriladi”, deydi donishmandlar. Shunday ekan, turmush tasvishlaridan hech ortmaydigan ota-onalarimiz, jonkuyar tarbiyachi va o’qituvchilarimiz, ko’cha-ko’yda savlat to’kib yuradigan mahalla ahllarimiz-hurmatli “katta”larimiz tarbiya masalasiga qanchalik e’tibor berishmoqda?

Ommaviy madaniyatning o’ziga xosligi nimada, uning jamiyatdagi funksiyasi nimadan iborat, insonlar uchun foydali va salbiy jihatlari nimalarda namoyon bo’ladi, jamiyatning taraqqiyotdagi o’rni salbiymi yoki ijobiymi, u nimalarni madh qiladi, u nimalarga da’vat qiladi, uning chaqirig’ida qanday g’oyalar singdirilgan, insonlar, ayniqsa, yoshlarda qanday xulq-atvorni shakllantirmoqda, u ma’naviy tanazzul elchisimi?-degan bir qancha savollar bizni ushbu maqolaga qo’l urishga undadi. Bizningcha, ommaviy madaniyat ko’p qirrali jarayon. Insoniyat tarixida Ommaviy madaniyat o’z faoliyati va maqsadlari, kurashish mexanizmlari hamda usul-tamoyillariga ega bo’lib kelgan.Uning o’ziga xosligi shundaki, u zamonga qarab o’z shakl-shamoyilini o’zgartirib turgan. “Ommaviy madaniyat” ishlab chiqaruvchilari inson psixologiyasini yaxshigina o’zlashtirishgan va qaysi yoshni tezroq o’zlariga og’dirishi-yu, o’zlarining yashirin maqsadlarini amalga oshirish mexanizmlarini chuqr ishlab chiqqanlar. Ularning asosiy maqsadi tez fursatda mo’may daromadga, moddiy ta’minotga ega bo’lishdir. Ular bu maqsadni har xil sabablar bilan yashirishga , xastpo’shlashga harakat qiladilar.

Mutafakkir olim Abu Ali Ibn Sino madaniyatni insonning ruhiy quvvat oladigan ma’naviy manbai, -deb ta’kidlaydi. “Hozirgi vaqtida ko’z o’ngimizda dunyoning geopolik, iqtisodiy va ijtimoiy , axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqr o’zgarishlar ro’y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya, jaholatga

qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda”<sup>1</sup>.

Ha, bugun atrofimizda ro'y berayotgan turli voqealarga to'gri va munosib baho bermasdan, kechayotgan jarayonlarga o'zimizning daxldor ekanimizni his qilmay, “bu muammolarga mening daxlim yo'q, ular haqida o'ylash mening uchun emas, boshqalar bosh qotirsin”, degan tushuncha bilan yashashning, loqaydlikning vaqtı allaqachon o'tib ketgan. Bugungi zamondoshlarimiz o'tgan asrning 90-yillaridagi odamlar emas. Yurtdoshlarimizning ma'naviy dunyosi yuksalib ijtimoiy faolligi o'sib, daxldorlik tuyg'usi kundan kun kuchayib bormoqda. Binobarin, yuksak ma'naviyatli shaxsni hech kim yenga olmaydi. Yuksak ma'naviyat qaror topgan jamiyat esa hargiz tanazzulga yuz tutmaydi.

Ma'lumki, yoshlar hamma masalada juda ta'sirchan, hissiyotga beriluvchan bo'ladi. Ayniqsa, ular hayotda uchrab turadigan adolatsizlik , nohaqlik holatlarini nozik his qilib, bu boradagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarni g'oyat tez va hassoslik bilan qabul qiladi. Shuning uchun ham turli mafkuravviy markazlar chetdan turib, “mutlaq erkinlik” ,“chegarasiz erkinlik”, “erkin axloq” degan soxta g'oyalarni ularning ongiga singdirishga zo'r beradi. Bu yo'lida “ommaviy madaniyat” namunalaridan, turli axborot texnologiyalaridan, radio-televide niye, internetning ijtimoiy tarmoqlari kabi vositalardan makkorlik bilan foydalanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarinig hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishidagi ma'ruzasida ma'naviy tarbiya to'g'risida shunday degan edilar:”Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisod bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga , ya'ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga asoslanamiz”<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-Toshkent :Ma'naviyat, 2008,119-bet

<sup>2</sup> Sh.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent, “O'zbekiston”-2017.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya strategik masala. Toki, ma’naviyat insonga yo’lboshchilik qilmasa, uni “egib olish”, “og’dirib olish” juda oson kechadi. “Hammamizga ayonki, bugungi kunda dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda. Jahonda manfaatlar to’qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jrayonlari bashariyat uchun beqiyos imkoniyatlar bilan birga, kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber jinoyatchilik, odam savdosi , narkotik kabi tahdidlar xavfi tobora ortib bormoqda...”<sup>3</sup>.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, eng kuchli va eng ta’sirchan qurolimiz — bu ma’naviyatdir. Ma’naviyatli inson — irodali, dunyoqarashi keng, tafakkuri boy va madaniyatli bo‘ladi. Va aynan yuksak ma’naviyat “ommaviy madaniyat”ga, buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalarga qarshi kuchli himoyadir.

Yurtimiz buyuk insonlar yurtidir. Biz ajdodlarimiz bilan qancha faxrlansak, iftixor etsak shuncha ozdir. Ammo kechagi kun xotira, bizga saboq bo‘lsa, ertangi kun bizdan harakatni, umidlar, orzularning ro‘yobini kutadi. Ajdodlarimiz kutgan istiqlol bizning davrimizga nasib bo‘ldi. Endi mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning qadriga yetish, bizdan keyingi avlodga obod va farovon, taraqqiyot yo‘lidan ildam odim otib borayotgan mustaqil Vatanni qoldirish mas’uliyati chin insoniylik, vatanparvarlik burchidir.

Buning uchun, eng avvalo, yoshlarimiz ta’lim tarbiyasiga, dunyoqarashining shakllanishiga e’tibor berishimiz, turli xil yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasliklari, “ommaviy madaniyat” qurbaniga aylanmasliklari uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz lozim. O‘zbek milliy tarbiyasi yetuk, komil insonni andoza qilib olgan. “Ommaviy madaniyat” esa insonni bilim, imon, insof, hayo, sadoqat kabi tuyg‘ularga loqayd va befarq shaxsga aylantirib qo‘yadi. “Ommaviy madaniyat” qurban ni bo‘lgan kishi vatanparvar, fidoyi, rostgo‘y, insofli bo‘lishi qiyin, chunki u erkin fikrashi kerak. Mustaqil fikrlovchi odamlar ko‘p bo‘lsa, “ommaviy madaniyat”ning bozori kasod bo‘ladi. Shuning uchun ularga o‘rtamiyona, ergashuvchi omma kerak.

<sup>3</sup> Shavkat Mirziyoyev Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik - milliy g‘oyamizning poydevoridir "Tasvir " nashriyot uyi Toshkent 2021.

Yoshlar qiziquvchan, ishonuvchan, ergashuvchan, lekin katta kuchdir. Shu bois ham “ommaviy madaniyat” qurbanlari ko‘proq yoshlardir. “Ommaviy madaniyat” shaxsning didini o‘ldirib, millionlab odamlarni mustaqil fikrdan, shaxsiy munosabatdan, demak, o‘zligidan, qalbidan judo qiladi. Bu esa turli xil yot g‘oyalarni g‘arazli maqsadlar yo‘lida targ‘ib qilayotgan kuchlar uchun ayni muddao. Demokratiya niqobidagi bunday tahdidlardan ogoh bo‘lish uchun esa o‘zlikni anglash, mohiyatini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mana shunday murakkab sharoitda yoshlarimizni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Jaholatga qarshi ma’rifat” degan ezgu g’oya kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo’lib keladi. Hayotda o’z yo’lini izlayotgan farzandlarimiz o’z ongi , o’z aqli bilan mana shu g’oyaning tarafdoriga aylanadi. Muqaddas dinimizda ilmga alohida e’tibor qaratilgan. Qadimlardan ham ilmga tashviq etilib, “Ilm talab qilish - har bir musulmonga farzdir” deyilgan. Muhtaram yurtboshimizning g’amxo’rliklari va sa’y-harakatlari tufayli yoshlarni ilm-ma’rifatli, odob-axloqli etib tarbiyalashga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Yoshlarimizning buyuk ajdodlarimizga munosib bo’la olishlari uchun har jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish uchun ko’plab sharoitlar yaratilayotgani bejiz emas. Prezidentimizning bu sa’y-harakatlari zamirida navqiron avlodimizga nisbatan qanchalar mehr, ishonch va e’tibor mujassam ekanini ko’plab amaliy misollarda ko’rish mumkin. Bugungi erkin va ozod hayotning ma’nosi va qadr –qimmatini yoshlarning ongiga yetkazish, ularga to’g’ri yo’l ko’rsatishda biz – birinchi navbatda ota-onalar, ustoz-murabbiylar mas’ul bo’lishimiz zarur.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch.-Toshkent :Ma’naviyat, 2008.
2. Sh.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent, “O’zbekiston”- 2017.
3. Shavkat Mirziyoyev Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik - milliy g’oyamizning poydevoridir "Tasvir " nashriyot uyi Toshkent 2021.